

Yoshlar ma'naviyati inqirozi sharoitida universitet talabalarida milliy qadriyatlar va psixologik barqarorlik asosida xulq-odob madaniyatini shakllantirish

Kozim Komoliddinovich Nomanov
nomanov.kozim84@gmail.com
University of Business and Science

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv va ma'naviy inqiroz sharoitida universitet talabarlari orasida xulq-odob madaniyatini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy qadriyatlar, psixologik barqarorlik hamda ma'naviy tarbiya omillarining yoshlar xulqiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, milliy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy muhit va psixologik barqarorlik talabalarda ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy ong va xulq-odob madaniyatining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, milliy qadriyat, psixologik barqarorlik, xulq-odob madaniyati, talaba yoshlar, tarbiya, axloqiy ong, ijtimoiy muhit

Formation of a culture of behavior based on national values and psychological stability among university students in the context of the crisis of youth spirituality

Kozim Komoliddinovich Nomanov
nomanov.kozim84@gmail.com
University of Business and Science

Abstract: This article analyzes the issues of forming a culture of behavior among university students in the context of globalization and spiritual crisis. The study studied the influence of national values, psychological stability and spiritual upbringing factors on the behavior of young people. According to the results of the study, it was found that a spiritual environment and psychological stability based on national values have a significant impact on the development of social responsibility, moral consciousness and a culture of behavior in students.

Keywords: spirituality, national values, psychological stability, culture of behavior, student youth, upbringing, moral consciousness, social environment

KIRISH

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi hamda ommaviy madaniyatning kuchayib borishi yoshlar ma'naviy dunyoqarashi va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida ma'naviy beqarorlik, axloqiy qadriyatlarga befarqlik, kommunikativ madaniyatning pasayishi, agressiv xatti-harakatlar va individualistik qarashlarning kuchayishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Bunday vaziyat yoshlar ma'naviyati inqirozi muammosini chuqur ilmiy-pedagogik va psixologik jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi.

Yoshlar jamiyatning eng faol va istiqbolli qatlamidir. Ularning ma'naviy barkamolligi, axloqiy madaniyati va psixologik barqarorligi mamlakatning ijtimoiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, bugungi kunda universitet talabalarida milliy qadriyatlar asosida xulq-odob madaniyatini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasida yoshlarni ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularning axloqiy immunitetini kuchaytirish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlarini, an'analari, ma'naviy merosi va axloqiy me'yorlarini o'zida mujassamlashtiradi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan kattalarga hurmat, mehr-oqibat, bag'rikenglik, hayo, vatanparvarlik va jamoaviylik kabi qadriyatlar yoshlar xulq-odob madaniyatini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy ijtimoiy muhitda talabalar turli psixologik bosimlar, stress, informatsion tahdidlar va ma'naviy ziddiyatlarga duch kelmoqdalar. Bu esa ularda psixologik barqarorlikni rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Psixologik barqarorlik shaxsning salbiy tashqi ta'sirlarga qarshi tura olish, emotsional muvozanatni saqlash, murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda ijtimoiy moslashuvchanlikni namoyon etish qobiliyatidir. Psixologik jihatdan barqaror bo'lgan talaba o'z xatti-harakatlarini nazorat qila oladi, ijtimoiy me'yorlarga rioya qiladi va ma'naviy qadriyatlarga sodiq bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi axborotlashgan jamiyatda yoshlarni turli yot g'oyalar, ommaviy madaniyat va ma'naviy tahdidlardan himoya qilish uchun ularda mustahkam axloqiy pozitsiya va psixologik immunitetni shakllantirish zarur. Universitet muhitida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda psixologik yondashuvlar asosida tashkil etish talabalarning barkamol shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi - yoshlar ma'naviyati inqirozi sharoitida universitet talabalarida milliy qadriyatlar va psixologik barqarorlik asosida xulq-odob madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini aniqlash va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- yoshlar ma'naviyati inqirozining ijtimoiy-psixologik omillarini tahlil qilish;
- milliy qadriyatlarning talaba yoshlar xulq-atvoriga ta'sirini o'rganish;
- psixologik barqarorlikning xulq-odob madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlash;
- oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va psixologik faoliyatni integratsiyalash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur maqola natijalari oliy ta'lim tizimida yoshlar tarbiyasini takomillashtirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish hamda talabalar orasida sog'lom psixologik muhitni shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yoshlar ma'naviyati, axloqiy tarbiya va xulq-odob madaniyatini shakllantirish masalalari Sharq va G'arb olimlari tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Mazkur muammo pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va falsafa fanlari kesishgan nuqtada o'rganilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy inson kamolotining asosiy mezon sifatida axloqiy yetuklik va ma'naviy tarbiyani ko'rsatadi. U "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat taraqqiyoti avvalo axloqli va ma'naviy barkamol insonlarni tarbiyalash bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Forobiy fikricha, insonning xulq-atvori uning ijtimoiy muhit va tarbiya bilan o'zaro munosabati natijasida shakllanadi.

Abu Ali ibn Sino esa shaxs ruhiyati va axloqiy sifatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy jihatdan asoslab bergan. Olim inson ruhiy holatining beqarorlashuvi axloqiy xulqning buzilishiga olib kelishini qayd etadi. Shu sababli, yoshlar tarbiyasida ruhiy muvozanat va emotsional barqarorlikni saqlash muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Alisher Navoiy asarlarida ham komil inson tarbiyasi, odob-axloq va ma'naviyat masalalari markaziy o'rinda turadi. Mutafakkir insonning jamiyatdagi obro'si uning bilimi bilan bir qatorda odobi va muomalasi bilan belgilanishini alohida ta'kidlaydi. Bu qarashlar bugungi kunda talabalarda kommunikativ madaniyat va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy o'zbek olimlari tomonidan ham yoshlar ma'naviy tarbiyasi masalalari keng tadqiq etilgan. E.G'oziev esa psixologik barqarorlikning shaxs xulq-atvori va ijtimoiy moslashuviga ta'sirini tahlil qilib, stress va emotsional zo'riqishning yoshlar axloqiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslaydi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida A.Bandura tomonidan ishlab chiqilgan "ijtimoiy o'rganish nazariyasi" alohida ahamiyatga ega. Unga ko'ra, inson xulq-atvori kuzatish, taqlid qilish va ijtimoiy muhit ta'siri asosida shakllanadi. Demak,

universitet muhiti, pedagoglar va tengdoshlar jamoasi talabalar xulq-odob madaniyatining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Z.Bauman globallashuv va "suyuq modernizm" sharoitida yoshlarning ma'naviy qadriyatlarga munosabati o'zgarayotganini qayd etadi. Uning fikricha, zamonaviy axborotlashgan jamiyatda an'anaviy qadriyatlarning zaiflashuvi yoshlar orasida ma'naviy bo'shliq va identifikatsiya inqirozini yuzaga keltiradi. Mazkur holat bugungi universitet yoshlarida ham kuzatilmoqda.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, yoshlar xulq-odob madaniyatini shakllantirishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- milliy va ma'naviy qadriyatlar;
- ijtimoiy muhit va tarbiya;
- psixologik barqarorlik;
- oilaviy va pedagogik ta'sir;
- kommunikativ madaniyat;
- raqamli va axborot muhiti.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, yoshlar ma'naviyati inqirozi sharoitida xulq-odob madaniyatini shakllantirish masalasi kompleks pedagogik-psixologik yondashuv asosida yetarlicha tadqiq etilmagan.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida universitet talabalarining ma'naviy qadriyatlarga munosabati, psixologik barqarorligi hamda xulq-odob madaniyati darajasi kompleks ravishda o'rganildi. Dastlabki diagnostik tahlillar natijasida yoshlar ma'naviyati inqirozi bilan bog'liq ayrim salbiy holatlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, talabalar orasida individualistik qarashlarning kuchayishi, virtual muloqotning real ijtimoiy munosabatlardan ustun kelishi, kommunikativ madaniyatning sust rivojlanganligi hamda stress va emotsional zo'riqish holatlarining ortib borayotgani kuzatildi.

So'rovnomaga ko'ra, respondentlarning 64 foizi milliy qadriyatlarni yoshlar tarbiyasining muhim omili sifatida baholagan bo'lsa-da, 36 foiz talaba kundalik hayotda milliy axloqiy me'yorlarga doimiy amal qilmasligini bildirgan. Bu holat yoshlar ongida milliy qadriyatlar haqida nazariy tushunchalar mavjud bo'lsa-da, ularni amaliy faoliyatga tatbiq etishda muammolar mavjudligini ko'rsatdi.

Psixologik diagnostika natijalari talabalarning muayyan qismida emotsional beqarorlik va stressga chidamlilik darajasi past ekanligini aniqladi. Respondentlarning 58 foizi o'quv yuklamalari, ijtimoiy bosim va kelajak bilan bog'liq xavotirlar sababli tez-tez psixologik zo'riqish holatlarini boshdan kechirishini qayd etdi. Shu bilan birga, 47 foiz talabalarda konfliktli vaziyatlarni boshqarish va konstruktiv muloqot olib borish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi.

Pedagogik kuzatishlar davomida ayrim talabalarda o'zaro hurmat, jamoaviylik va ijtimoiy mas'uliyat kabi axloqiy sifatlarning sust rivojlanganligi kuzatildi. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning haddan tashqari ta'siri natijasida ayrim yoshlar orasida agressiv kommunikatsiya, befarqlik va ma'naviy qadriyatlarga nisbatan loqaydlik holatlari namoyon bo'ldi.

Tajriba-sinov ishlari doirasida tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy seminarlar, psixologik treninglar va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy tadbirlar talabalar xulq-odob madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shakllantiruvchi bosqich yakunida respondentlarda:

- milliy qadriyatlarga hurmat hissining kuchaygani;
- kommunikativ madaniyat ko'rsatkichlarining yaxshilangani;
- emotsional barqarorlik va stressga chidamlilik darajasining ortgani;
- ijtimoiy mas'uliyat va jamoaviylik sifatlarining rivojlangani kuzatildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat bilan psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini integratsiyalash talabalar xulq-odob madaniyatini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarga asoslangan trening va seminarlar yoshlarning o'zligini anglash, ma'naviy identifikatsiya va axloqiy qarashlarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, psixologik barqarorlik yoshlarning axloqiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Emotsional jihatdan barqaror talabalar ijtimoiy munosabatlarda bag'rikenglik, hurmat va mas'uliyat kabi sifatlarni ko'proq namoyon etdilar. Aksincha, psixologik zo'riqish va stress darajasi yuqori bo'lgan respondentlarda agressivlik, beqaror xatti-harakatlar va kommunikativ muammolar ko'proq kuzatildi.

Tadqiqot davomida milliy qadriyatlarning tarbiyaviy salohiyati ham alohida namoyon bo'ldi. O'zbek xalqining mehr-oqibat, kattalarga hurmat, hayo, vatanparvarlik va jamoaviylik kabi qadriyatlari talabalar orasida sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Bu esa milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayoniga integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi.

Muhokama natijalariga asoslanib quyidagi pedagogik-psixologik shart-sharoitlar samarali deb topildi:

1. Universitetlarda ma'naviy-ma'rifiy va psixologik faoliyat integratsiyasini kuchaytirish;
2. Talabalarda stressga chidamlilik va emotsional barqarorlikni rivojlantiruvchi treninglarni tashkil etish;
3. Milliy qadriyatlarni interfaol metodlar orqali targ'ib qilish;
4. Oila, universitet va mahalla hamkorligini rivojlantirish;
5. Talabalarning media savodxonligi va raqamli madaniyatini shakllantirish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari yoshlar ma'naviyati inqirozi sharoitida universitet talabalarida xulq-odob madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlar va psixologik barqarorlik o'zaro uyg'un holda muhim pedagogik omil ekanligini tasdiqladi.

XULOSA

Yoshlar ma'naviyati inqirozi sharoitida universitet talabalarida xulq-odob madaniyatini shakllantirish bugungi kunning dolzarb pedagogik va psixologik muammolaridan biri hisoblanadi. Globallashuv, ommaviy madaniyat, raqamli axborot oqimining kuchayishi hamda ijtimoiy-psixologik bosimlarning ortishi yoshlar ma'naviy dunyoqarashi va axloqiy xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, talabalarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish, ularning psixologik barqarorligini mustahkamlash va milliy qadriyatlarga sodiqlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar talabalar xulq-odob madaniyatini shakllantirishning muhim ma'naviy asosi hisoblanadi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan mehr-oqibat, kattalarga hurmat, hayo, bag'rikenglik, jamoaviylik va vatanparvarlik kabi qadriyatlar yoshlarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, psixologik barqarorlik talabalarning stress, emotsional zo'riqish va turli salbiy ijtimoiy ta'sirlarga qarshi tura olishida muhim omil ekanligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari davomida ma'naviy-ma'rifiy seminarlar, psixologik treninglar va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy faoliyatlarning talabalarda kommunikativ madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat hamda emotsional barqarorlikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tasdiqlandi. Ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy va psixologik faoliyatni integratsiyalash xulq-odob madaniyatini shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmi sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- yoshlar ma'naviyati inqirozi talabalarning axloqiy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi;
- milliy qadriyatlar yoshlarning ma'naviy immunitetini kuchaytiruvchi asosiy tarbiyaviy omillardan biridir;
- psixologik barqarorlik xulq-odob madaniyatining shakllanishida muhim psixologik omil hisoblanadi;
- universitetlarda ma'naviy-ma'rifiy va psixologik faoliyat uyg'unligini ta'minlash zarur;
- interfaol pedagogik texnologiyalar va psixologik treninglardan foydalanish tarbiyaviy samaradorlikni oshiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta'lim myaccasalarida talabalarning psixologik salomatligini qo'llab-quvvatlovchi trening va konsultatsiyalarni muntazam tashkil etish;
2. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuniga milliy qadriyatlar va axloqiy tarbiya elementlarini chuqur integratsiyalash;
3. Talabalarda media savodxonlik va raqamli madaniyatni rivojlantirish orqali yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;
4. Oila, universitet va mahalla hamkorligi asosida kompleks tarbiyaviy tizim yaratish;
5. Talabalarni ijtimoiy loyihalar va jamoaviy faoliyatlarga faol jalb qilish.

Umuman olganda, universitet talabalarida milliy qadriyatlar va psixologik barqarorlik asosida xulq-odob madaniyatini shakllantirish yoshlarning barkamol shaxs sifatida kamol topishida, jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni qaror toptirishda hamda kelajak taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Forobiy A. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
4. Ibn Sino A. Axloq va ruhiyatga oid risolalar. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2015.
6. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
7. Musurmonova O. Oila ma'naviyati va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
8. Yo'ldoshev J.G'. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.